

## SHARTNOMA

2022 y. «30» 8

411-10-145-TB/2022-  
son

Sultonrovot d.

Keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataluvchi Toshkent viloyati Yuqori chirchiq tuman tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi bosh shifokor Mirtursunova M.M bir tomondan va keyingi o'rinlarda Outsorser deb ataluvchi MCHJ «CLEAN AL» nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi direktori O. A. Bekmurodov ikkinchi tomondan, keyinchalik Tomonlar deb ataladi, ushbu Shartnomani quyidagilar to'g'risida tuzdilar.

### I. Shartnoma predmeti

1.1 Outsorser Buyurtmachining topshirig'i bo'yicha mazkur Shartnomaning 1.2-bandida qayd etilgan xizmatlarni ko'rsatish, Buyurtmachi esa — ushbu xizmatlar uchun pul to'lash majburiyatini oladi.

1.2 Outsorser mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatdan boshlab u tugaguniga qadar har kuni shifoxonaning kirxonasida kir yuvishini belgilangan me'yorlari hamda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlari bilan belgilangan sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya etgan holda Buyurtmachi bilan kelishilgan xolda kir yuvish majburiyatini (keyingi o'rinlarda Xizmatlar deb ataladi) o'z zimmasiga oladi.

1.3 Xizmat ko'rsatish muddati:

2022 yil «30» avgustdan 2022 yil «31» dekabrgacha.

1.4 Tomonlar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va Outsorser tomonidan amalda ko'rsatilgan Xizmatlar uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisob-fakturani imzolaganidan hamda Buyurtmachi tomonidan Outsorserning mazkur Shartnomada ko'rsatilgan bank hisobraqamiga pul mablag'lari o'tkazilgandan so'ng Xizmatlar ko'rsatilgan deb hisoblanadi.

### II. Tomonlarning huquqlari va majburiyatlari

Outsorser quyidagilarga majbur:

2.1 Kir yuvish xizmatini sifatli va toza yuvish bo'yicha sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlarining tashkil etishga taalluqli qismlaridagi talablarga to'liq mos keladigan Xizmatlar ko'rsatish.

2.2 Belgilangan sertifikatlarga ega bulgan kir yuvish vositalaridan foydalanish.

2.3 O'zining omborida saqlanayotgan kir yuvish zaxiralarini yangilab turish.

2.4 Outsorser tomonidan sifatli va yangi maxsulotlar xarid qilish.

2.5 Xizmatlarni mazkur Shartnomaning 1.3-bandida ko'rsatilgan muddatda va to'liq hajmda ko'rsatish.

2.6 Xizmatlar ko'rsatish jarayonida Outsorser mazkur Shartnoma shartlariga amal qilmasdan, sifatsiz kitr yuvish vositalaridan foydalansa, yuvish sifatining yomonlashuviga olib kelgan barcha kamchiliklarni Buyurtmachining talabi bo'yicha bir kun davomida bepul bartaraf etish.

2.7 Xodimlar zimmasiga Buyurtmachining hududida odob-axloq qoidalari, shuningdek, ichki kun tartibiga rioya qilish majburiyatini yuklash.

2.8 Xizmatlarni bevosita ko'rsatish.

2.9 Xizmatlar narxini oshirmagan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan: soliqlar to'lash;  
belgilangan tartibda u bilan mehnat shartnomasi tuzgan xodimlar mehnatiga haq to'lash;

kir yuvish vositalarini xarid qilish;  
sovutuvchi kompressorlari va boshqa jihozlarni soz holatda saqlash, ta'mirlash, qayta to'ldirish;  
ijaraga olingan bino, xona, mebel, inventar va boshqalarni zarur holatda saqlash va joriy ta'mirlash.

2.10 Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida ijara shartnomasini rasmiylashtirgan holda Buyurtmachidan ishlab chiqarish xonalari, jihozlar va oshxona mebelini qabul qilib olish.

2.11 Mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Buyurtmachini bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish, ushbu muddat tugaguniga qadar esa Buyurtmachi ovqatlanishini uzluksiz tashkil etishni ta'minlash.

Buyurtmachi quyidagilarga majbur:

2.12 Bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi narxlar bo'yicha bir oyda kamida bir marta Xizmatlar haqini to'lash.

2.14 Autosserga shaxsiy tarkibning kir yuvishni tashkil etish uchun ijara shartnomasi doirasida «ноль» stavkasi bo'yicha kir xona yuvish xonalari, jihozlari va mebel anjomlarini vaqtincha foydalanishga berish.

2.15 Tomonlar imzolaydigan tegishli qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida ijara shartnomasini rasmiylashtirgan holda Autosserga kir xonaning kir yuvish xonalari, jihozlari va mebelini topshirish.

2.16 Mazkur Shartnomani bekor qilish haqida Autosserni bir oy oldin yozma ravishda ogohlantirish.

2.17 Buyurtmachi quyidagi huquqlarga ega:

2.18 Autosserning faoliyatiga aralashmagan holda bajarilayotgan ishlarning yuritilishi va sifatini istalgan vaqtda tekshirish.

2.18.1 Buyurtmachi Shartnomani bajarishni rad etishi to'g'risidagi xabarnomani olguniga qadar

2.18.2 Autosserga ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatini belgilangan tartibda to'lab, istalgan vaqtda Shartnomanibajarishdan bosh tortish.

### III. Shartnomaning narxi va o'zaro hisob-kitoblar tartibi

Mazkur Shartnomaning narxi 1-ilovaga muvofiq narxi:

№	Mahsulotlar nomi	o'lchov birligi	soni	narxi	so'mmasi
1	Kir yuvish xizmati	kg	22838	8350	190 695 300
	JAMI				190 695 300

Bir yuz to'qson million olti yuz to'qson besh ming uch yuz so'mni tashkil etadi,

3.1 Autosserga oldindan 30 foiz miqdoridagi to'lov 5 bank kuni ichida o'tkaziladi.

3.2 Autosser tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitoblar bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasi va rasmiylashtirilgan hisob-faktura asosida ko'rsatilgan xizmatlarning amaldagi qiymati bo'yicha 70 foiz miqdorida haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar summasidan kelib chiqib o'n kunda kamida bir marta amalga oshiriladi.

3.3 1kg kir yuvish uchun ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi narxi Autosser yetkazib beruvchidan xarid qilgan va tegishli me'yorlar bo'yicha tasdiqlangan narxlardagi mahsulotlarga qarab narx chiqariladi.

3.4 Buyurtmachi tomonidan amaldagi soni haqidagi ma'lumotlar va xar bir kg kir uchun ko'rsatiladigan xizmatlarning amaldagi narxi asosida Buyurtmachi kundalik talabiga uvofiq Autosser

bilan birgalikda har o'n kunda to'lanishi lozim bo'lgan summani ko'rsatgan holda bajarilgan ishlarning yig'ma dalolatnomasini tuzadi va hisob-fakturani rasmiylashtiradi hamda ular Outsorser rahbari va shifoxona bosh shifokori tomonidan imzolanadi.

3.5 Buyurtmachi tomonidan amalda ko'rsatilgan xizmatlar narxi belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bajarilgan ishlar dalolatnomasi va hisob-faktura olingan vaqtdan boshlab 10 bank kuni davomida Shartnomada belgilangan summadan ortiq bo'lmagan miqdorda to'lanadi.

3.6 Mazkur Shartnomaga 2-ilovada ko'rsatilgan Shartnoma prognoz summasini hisoblash uchun kir yuvishning narxlari o'zgarganda yoki boshqa asosli holatlarda Tomonlardan birining tashabbusi bilan bir oyda bir marta qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

#### **IV. Tomonlarning majburiyatlari**

4.1 Outsorser Buyurtmachi shaxsiy tarkibining kir yuvishni tashkil etishi bo'yicha Shartnoma majburiyatlarini o'z vaqtida bajarmagan holatlarda Buyurtmachiga muddati o'tkazib yuborilgan har bir kun uchun majburiyat bajarilmagan qismining 0,5 foizi miqdorida penya to'laydi. Bunda penyaning umumiy summasi ko'rsatilmagan xizmatlar oylik qiymatining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.2 Penya (jarima) to'lash Tomonlarni zimmasidagi majburiyatlarini bajarishdan yoki buzilishlarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

4.3 Mazkur Shartnoma shartlarining bajarilmagani yoki tegishli darajada bajarilmagani uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida, «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikka tortiladilar.

4.4 Tomonlarning Mazkur Shartnomada nazarda tutilmagan javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi hududida amalda bo'lgan fuqarolik qonunchiligi normalariga muvofiq qo'llaniladi.

#### **V. Taraflarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ma'suliyati.**

5.1 Taraflar shartnoma shartlarini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun talablariga so'zsiz amal qiladi.

5.2 Taraflar, ularning vakillari va xodimlari o'z majburiyatlarini bajarish jarayonida ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan holda, ushbu shartnoma doirasida qonun buzilishga olib keladigan harakatlar(harakatsizlik)ga yo'l qo'ymaydilar.

5.3 Taraflar O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etish barobarida quyidagilarga yo'l qo'ymaslik majburiyatini oladilar:

- pora berish, shuningdek ushbu jinoyatga vositachilik qilish;
- tovlamachilik, yoki boshqa noqonuniy yo'llar bilan pora olishga undash;
- pora olishga bevosita yoki bilvosita rozilik berish.

5.4 Taraflar, ularning vakillari va xodimlari rag'batlantirishning har qanday shaklini rad etadilar. jumladan:

- taraflarning xodimlari yoki vakillaridan pul mablag'lari olish, sovg'alar berish, ularga bepul xizmatlar ko'rsatish yoki ishlarni bajarishni ushbu harakat(harakatsizlik)ni amalga oshirgan xodim yoki vakolatli vakil uni rag'batlantiradigan tomon foydasiga har qanday harakatni bajarishni.

5.5 Taraflarga shartnoma shartlarini amalga oshirishda sun'iy ravishda ikkinchi tarafga noqulayliklar tug'dirib, korrupsiyaviy omil paydo bo'lishiga bevosita hamda bilvosita sababchi bo'lish taqiqlanadi.

5.6 Agar shartnoma taraflari tomonidan shartnoma shartlariga rioya qilmaslik yoki ushbu shartlarning buzilish holatlari sodir bo'lgan yoki sodir bo'lishi mumkin deb gumon qilinganda shuningdek,

shartnomaning 5.1-bandida belgilangan qoidalardan biri sodir etilganda ushbu harakat sodir yetilganligi yuzasidan ikkinchi tomonni xabardor qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi hamda shartnoma shartlaridagi qonun buzilishining inkor etilmaydigan dalillari mavjud bo'lganda, shartnoma taraflari O'zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi vakolatli davlat organlariga murojaat qiladilar.

## VI. Munozarali vaziyatlarni hal etish tartibi

6.1 Mazkur Shartnomani bajarishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolar va kelishmovchiliklar imkonqadar Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etiladi.

6.2 Nizolar va kelishmovchiliklarni Tomonlar o'rtasida muzokara o'tkazish yo'li bilan hal etish mumkin bo'lmaydigan holatlarda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan kelishmovchiliklarni suddan oldin bartaraf etish tartib-taomili amalga oshirilgandan so'ng ular O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda ko'rib chiqish uchun Yuqori Chirchiq tumanlararo iqtisodiy sudga beriladi.

## VII. Fors-major holatlar

7.1. Tomonlar majburiyatlarning qisman yoki to'liq bajarilmaganligi uchun, agar bunday holat yengib bo'lmas kuch, ya'ni tabiiy ofaatlar, tabiiy va texnogen tushdagi favqulodda holatlar oqibati hisoblanisa, javobgarlikdan ozod qilinadi. Bunda mazkur Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish muddati mutanosib ravishda ushbu hodisalar ro'y bergan muddatga orqaga suriladi

## VIII. Yakunlovchi qoidalar

8.1 Ushbu Shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar faqat ular yozma shaklda rasmiylashtirilib, Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolanganidan so'ng haqiqiy hisoblanadi. Mazkur Shartnomaga barcha ilovalar uning ajralmas qismini tashkil etadi.

8.2 Tomonlarning hech biri mazkur Shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini boshqa Tomonning yozma shakldagi rozilgisiz biror-bir uchunchi tomonga berib yuborishi mumkin emas.

8.3 Ushbu Shartnoma ikki nusxada tuzilgan. Ikkala nusxa aynan bir xil bo'lib, bir xil yuridik kuchga ega. Tomonlarning har birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi bo'ladi.

## IX. Mazkur Shartnomaning amal qilish muddati

9.1 Ushbu Shartnoma ikki tomonlama imzolangan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

## X. Tomonlarning manzili va bank rekvizitlari

### “Buyurtmachi”

**Yuqori Chirchiq Tuman Tibbiyot Birlashmasi**  
Parkent koch 49 a uy  
STIR: 200443432  
H/r: 1000 22860 27239 7073 1010 54001  
Bank: Toshkent shahar Markaziy bank,  
Toshkent viloyati XKKM  
G'azna H/r: 23402000300100001010 MFO: 00014  
STIR: 201122919

Raxbar:



M.Mirtursunova

### “Autorser”

**MCHJ « CLEAN ALL »**  
Manzil: Toshkent viloyati Pskent tumani  
Kultepa MFY, Ravshan kuchasi 96-uy  
INN: 309 553 832  
X/r: 2020 8000 1055 2709 0001  
Bank: Toshkent sh. "IPOTEKA-BANK" ATIB  
bosh amaliyot boshqarmasi  
X/r: 23402000300100001010  
MFO: 00014. INN: 201122919  
Raxbar: O.A. Bekmurodov





Yuridik shaxs (tadbirkorlik subyektlari) davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida  
**GUVOHNOMA**

Ushbu bilan Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestriga

**"CLEAN ALL" Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

(Yuridik shaxsning - tadbirkorlik subyektlari tashkiliy-huquqiy shakli ko'rsatilgan holdagi to'liq nomi)

**"CLEAN ALL" MCNJ**

(Yuridik shaxsning qisqartirilgan nomi)

Tashkil etish (qayta tashkil etish, boshqa ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini o'zgartirish)

16.05.2022

1138166

ro'yxat raqamli yozuv kintilganligi tasdiqlanadi.

(Sana, oy (so'z bilan), yil)

Solliq to'lovchining identifikatsiya raqami (STIR):

309553832

Tashkiliy-huquqiy  
shakli:

**Mas'uliyati cheklangan jamiyat**

Joylashgan joyi:


**Toshkent viloyati, Pskent tumani, Pskent, Kynrena МФЙ, Розван кучаси,  
96-йи,**

Guvohnoma:

**Toshkent viloyati, Pskent tumani, DAVLAT XIZMATLARI  
MARKAZI**

**to'mondan  
berilgan**

(Ro'yxatdan o'tkazuvchi organning to'liq nomi):



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA  
MUVOFIQLIGI TO'GRISIDA HUQUQIY XULOSA**

1. Loyihaning turi: Shartnoma

2. Loyihaning nomi:

Keyingi o'rinlarda Buyurtmachi deb ataluvchi Toshkent viloyati Yuqori chirchiq tuman tibbiyot birlashmasi nomidan Nizom asosida faoliyat yurituvchi bosh shifokor Mirtursunova M.M bir tomondan va keyingi o'rinlarda Autsorser deb ataluvchi MCHJ «CLEAN AL» nomidan Ustav (ishonchnoma) asosida faoliyat yurituvchi direktori O. A. Bekmurodov ikkinchi tomondan, kir yuvish xizmati amalga oshirish bo'yicha shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiqaruvchi va kiritilgan sana haqida ma'lumot.

Ushbu shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonunining talablariga mos keladi.

4. Shartnomaning moliyaviy jihatlar bilan bog'liq masalalar shartnomaning huquqiy ekspertizasi predmetiga kirmaydi.

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi**

**Bosh yuriskonsulti**

30-avgust 2022-yil



**R.Tuxtayev**

# Протокол закупочной комиссии по конкурсу лот № 139501 на приобретение аутсорсинг хизмати кир ювиш

Способ проведения электронный

Дата 24.08.2022

Время рассмотрения 24.08.2022 17:06

Конкурсная комиссия Юкори Чичик туман тиббиёт бирлашмаси 1, (Далее – Комиссия) в составе:

<b>Председатель комиссии</b>	MIRTURSUNOVA MAKTUBA MIRXAITOVNA	рахбар	Председатель комиссии
<b>Секретарь комиссии</b>	ATAMETOVA XURSHIDA ABDISUNATOVNA	иш юритувчи	секретар
<b>Член комиссии</b>	RAXATALIYEVA FATIMA NURALIYEVNA	davolash ishlari movuni	член комиссии
<b>Член комиссии</b>	XUSANOV ALISHER AXMATOVICH	касаба раис	член комиссии
<b>Член комиссии</b>	MAXMUDOVA MUHAYYO O'KTAMOVNA	провизор	член комиссии
<b>Член комиссии</b>	KARABAYEVA GULBAXOR AZIZOVNA	пархез хамшира	член комиссии

Рассмотрев поступивших предложений со стороны участников по опубликованному объявлению на специальном информационном портале от 24.08.2022 года № лота 139501.

Метод оценки предложений – Бальный метод (Весовой коэф.технико-квалификационной части: 80.00 / Весовой коэф. ценовой части: 20.00)

Мин. балл: 75

Предмет закупки:

<b>Наименование товара (работы, услуги)</b>	<b>Услуги прачечных</b>
Подробное описание	Услуги прачечных
Количество товара	22 838.00
Единица измерения	
Цена товара (услуги) за единицу	8 757.00
Стартовая сумма	199 992 366.00
Валюта	UZS

По итогам рассмотрения поступивших предложений по технической части участникам присвоены следующие баллы:

Критерий №1 Ташкилотнинг давлат идоралари рўйхатидан ўтказилганлиги хақидаги гувоҳнома мавжудлиги

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилотнинг давлат идоралари рўйхатидан ўтказилганлиги хақидаги гувоҳнома мавжудлиги

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО АКМАЛХОН MOBIL BARAKA	25	Ташкилотнинг давлат идоралари рўйхатидан	24	Экспертная		

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
		Ўтказилганлиги хақидаги гувоҳнома				
<b>CLEAN ALL MCHJ</b>	25	Ташкилот гувоҳнома	25	Экспертная		
<b>UMRBOQIY MIRISHKOR MЧЖ</b>	25	чойшабларни уз вақтида ювиб санитария ва гигиена коидаларига риоя қилиб дазмолланган кадокланган холда топшириш	20	Экспертная		
<b>"ENERGO O'Z"</b>	25	20	22	Экспертная		

Критерий №2 Ташкилода фаолият юритувчи ходимлар сони (Ф.И.Ш. лавозими ҳамда иш тажрибаси хақида маълумот, QR коди билан)

Тип: Текстовое значение

Описание: Ташкилода фаолият юритувчи ходимлар сони (Ф.И.Ш. лавозими ҳамда иш тажрибаси хақида маълумот, QR коди билан)

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО АКМАЛХОН MOBIL BARAKA</b>	25	Таклиф этилаётган нарх	24	Экспертная		
<b>CLEAN ALL MCHJ</b>	25	Ташкилода фаолият юритувчи ходимлар	25	Экспертная		
<b>UMRBOQIY MIRISHKOR MЧЖ</b>	25	чойшабларни уз вақтида ювиб санитария ва гигиена коидаларига риоя қилиб дазмолланган кадокланган холда топшириш	20	Экспертная		
<b>"ENERGO O'Z"</b>	25	20	23	Экспертная		

Критерий №3 Пастел белёларни тозалаб йувиш учун захираси мавжудлиги ва техника билан таъминланганлиги Пастел белёларни тозалаб ювишни уз вақтида бажариб бериш тўғрисида кафолат хати

Тип: Текстовое значение

Описание: Пастел белёларни тозалаб йувиш учун захираси мавжудлиги ва техника билан таъминланганлиги Пастел белёларни тозалаб ювишни уз вақтида бажариб бериш тўғрисида кафолат хати

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
<b>ООО АКМАЛХОН MOBIL BARAKA</b>	25	кафолат хати	24	Экспертная		
<b>CLEAN ALL MCHJ</b>	25	кафолат хати	25	Экспертная		



Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
UMRBOQIY MIRISHKOR MЧЖ	25	чойшабларни уз вақтида ювиб санитария ва гигиена коидаларига риоя қилиб дазмолланган кадокланган холда топшириш	22	Экспертная		
"ENERGO O'Z"	25	30	23	Экспертная		

Критерий №4 Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома мавжудлиги Банкдан картотекада турмаслиги тўғрисида маълумот асл нусхаси тақдим этилиш керак

Тип: Текстовое значение

Описание: Солиқ органидан солиқ ва бошқа мажбурий тўловлардан қарздорлиги мавжуд эмаслиги тўғрисида маълумотнома мавжудлиги Банкдан картотекада турмаслиги тўғрисида маълумот асл нусхаси тақдим этилиш керак

Обязательность: Критично

Наименование участника	Макс балл	Значение участника	Балл участника	Тип оценки	Примечание	Причина
ООО АКМАЛХОН MOBIL BARAKA	25	солиқ ва Банкдан картотекада турмаслиги тўғрисида маълумот	24	Экспертная		
CLEAN ALL MCHJ	25	Солиқ ва Банкдан картотекада турмаслиги тўғрисида маълумот	25	Экспертная		
UMRBOQIY MIRISHKOR MЧЖ	25	чойшабларни уз вақтида ювиб санитария ва гигиена коидаларига риоя қилиб дазмолланган кадокланган холда топшириш	24	Экспертная		
"ENERGO O'Z"	25	20	20	Экспертная		

Оценка участников финансовой части составила:

Наименование участника	Стартовая сумма	Предлагаемая сумма	Сумма с учетом конвертации (UZS)	Применение преференции	Общее значение (UZS)	Дата предложения	Оценка стоимости (балл)
ООО АКМАЛХОН MOBIL BARAKA	199 992 366.00	198 690 600.00 UZS	198 690 600.00	00.00	198 690 600.00	23.08.2022 22:31:13	12.64
CLEAN ALL MCHJ	199 992 366.00	190 697 300.00 UZS	190 697 300.00	00.00	190 697 300.00	24.08.2022 12:55:43	13.17
"ENERGO O'Z"	199 992 366.00	199 992 366.00 UZS	199 992 366.00	00.00	199 992 366.00	24.08.2022 14:06:42	12.56
UMRBOQIY MIRISHKOR MЧЖ	199 992 366.00	125 609 000.00 UZS	125 609 000.00	00.00	125 609 000.00	24.08.2022 13:44:58	20.00

Итоговая оценка участников включая финансовую часть составила:

Наименование участника	Общий балл по технической части	Общий балл по финансовой части	Итоговый балл
<b>ООО АКМАЛХОН МОБИЛ БАРАКА</b>	76.8	12.64	89.44
<b>CLEAN ALL MCHJ</b>	80	13.17	93.17
<b>"ENERGO O'Z"</b>	70.4	12.56	82.96
<b>UMRBOQIY MIRISHKOR МЧЖ</b>	68.8	20	88.8

Закупочная комиссия по конкурсу лот № 139501 от 24.08.2022 года на приобретение аутсорсинг хизмати кир ювиш определила победителем:

CLEAN ALL MCHJ  
309553832

и резервный исполнитель: ООО АКМАЛХОН МОБИЛ БАРАКА (305238173)

Проголосовали

Комиссия	Ф.И.О.	Голосование	Комментарии
<b>Председатель комиссии</b>	MIRTURSUNOVA MAKTUBA MIRXAITOVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	RAXATALIYEVA FATIMA NURALIYEVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	XUSANOV ALISHER AXMATOVICH	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	MAXMUDOVA MUNAYYO O'KTAMOVNA	Согласен	
<b>Член комиссии</b>	KARABAYEVA GULBAXOR AZIZOVNA	Согласен	

Протокол закупочной комиссии подписан посредством ЭЦП

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Юқори Чирчиқ тумани тиббиёт  
бирлашмаси бошлиғи

*М.М. Миртурсунова*  
М.М. Миртурсунова

"29" август 2022 йил

Юқори Чирчиқ тумани туман тиббиёт бирлашмаси харид комиссиясининг Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2020 йил 10 январь 16 сонли қарорига асосан Юқори Чирчиқ тумани тиббиёт бирлашмаси томонидан давлат харидларининг махсус ахборот порталида энг яхши таклифларни саралаб олиш тўғрисидаги эълон 2022 йил 24-августда 22110012139501-сонли LOT орқали ташкилотларнинг таклифларини ўрганиш натижалари юзасидан ўтказган йиғилиш

БАЁННОМАСИ № 49

"29" август 2022 йил

Юқори Чирчиқ тумани

Қатнашдилар: Комиссия раиси  
Комиссия аъзолари

Миртурсунова М. – ТТБ раҳбари  
Вахобов А – ТТБ даволаш ишлар муовуни  
Хусанов А – ТТБ қасаба уйишмаси раиси  
Махмудова М – Ички дорихона мудир  
Қарабаева Г – Пархез хамшмраси

Қатнашмаганлар:

Йўқ

**Кўрилган масала:** Давлат харидларининг электрон тизимига муҳокама қилиш учун жойлаштирилган харид комиссиясининг Юқори Чирчиқ тумани тиббиёт бирлашмаси Қир ювиш бўлими сифатли қир ювиш мақсадида аутсорсинг утказиш учун 2022 йил 24-август тузилган 139501-сонли баённомаси натижаларини ўрганиш.

**Эшитилди:**

Харид комиссияси раиси, Миртурсунова М. ТТБ раҳбари сўзга чиқиб, комиссия аъзоларини Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг 2020 йил 10 январь 16 сон қарори юзасидан.

Юқори Чирчиқ тумани тиббиёт бирлашмасининг сифатли қир ювиш учун давлат харидларининг махсус ахборот порталида энг яхши таклифларни саралаб олиш тўғрисидаги эълон 2022 йил 24-август 22110012139501-сонли LOT рақами билан 190 695 300 (Бир юз тўқсон миллион олти юз тўқсон беш минг үчюз) сўмга энг мақбул таклифни тақдим этган «CLEAN ALL» МСНЖ билан шартнома балли тизимга асосан электрон равишда тузилди.

**Танлаш иштирокчиларига қўйилган талаблар:** Иштирокчилар қуйидаги мезонларга мувофиқ бўлиши керак: шартномани бажариши учун зарур техник, молиявий, моддий, кадрлар ресурсларининг ҳамда бошқа ресурсларнинг мавжудлиги; шартнома тузиши учун қонуний ҳуқуққа эгалик; солиқлар ва йиғимларни тўлаш бўйича муддати ўтган қарздорликнинг мавжуд эмаслиги; ўзига нисбатан жорий этилган банкротлик тартиб-таомилларининг мавжуд эмаслиги; Инсофсиз ишроқчиларнинг ягона реестрида қайд этилмаганлиги.

Харид комиссияси аъзолари етказиб берувчи томонидан ҳамда давлат харидларининг электрон тизимига жойлаштирилган муҳокама натижаларини атрофлича ўрганиб чиқиб, Юқори Чирчиқ тумани тиббиёт бирлашмаси сифатли кир ювиш тозалаш «CLEAN ALL» МСНЖ га топшириш кераклигини, сабаби унинг тизимдаги тижорат таклифи Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги “Давлат харидлари тўғрисида” Қонунининг талабларига мувофиқ келишини таъкидладилар ва бир овоздан

### ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Мазкур 2022 йил 24-август 22110012139501-сонли LOT бўйича расмийлаштирилган баённома давлат харидларининг электрон тизимига муҳокама қилиш учун икки иш қунига жойлаштирилган даврда саралаш иштирокчилари томонидан саралаш ўтказиш натижалари бўйича эътирозлар келиб тушмаганлиги сабабли «CLEAN ALL» МСНЖ ғолиб деб топилсин.

2. Юқори Чирчиқ тумани туман тиббиёт бирлашмаси сифатли тоза кир ювиб бериш учун харид комиссия томонидан ғолиб деб топилган «CLEAN ALL» МСНЖ билан баённомада кўрсатилган нархлар доирасида шартнома тузилсин.

3. Ушбу баённома ижросини назорат қилиш бош ҳисобчи Д.Зиёева зиммасига юклатилсин.

Юқоридагиларни тасдиқлаб, имзо чекувчилар:

Ваҳобов А 

Хусанов А 

Махмудова М 

Карабаева Г 